

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINI TARBIYALASHDA XALQ ASHULA VA RAQS ANSABLLARI REPERTUARINING AHAMIYATI

Fazliddinov Zokirjon Xusniddin o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7694868>

Hech birimizga sir emaski, ayni paytda butun dunyoda murakkab g'oyaviy qarama-qarshiliklar tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib bormoqda. Mana shunday bir davrda yosh avlodni ilm-fan, texnika taraqqiyoti talablari darajasida, ya'ni yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazish, shu bilan bir qatorda, ularni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash eng muhim hamda dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Bu borada asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan, ancha qadimiyligi tarixga va o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan o'zbek xalq musiqasini, ashula va raqslarini, jumladan, folklor-ethnografik ansambllar faoliyatini tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligini e'tirof etish joizdir. Xalq og'zaki ijodiyoti, musiqa san'ati, o'yinlari milliy ta'lif va tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, azaldan jahon tamadduniga ulkan darajada ta'sir ko'rsatgan, madaniyat, san'at, fan va badiiy adabiyot markazlaridan biri sifatida ma'lum va mashhur hisoblangan, olimu ulamolarni yetishtirgan diyorimizda san'atning deyarli barcha turlari rivojlangan. Xususan, bebaaho xazina sifatida talqin etiladigan xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo'lgan musiqa folklorining hayotbaxsh an'analari hozirga qadar sayqal topib, jilolanib, yashab kelmoqda. Nihoyatda, qadimiyligi, lirik janrlarga boy bo'lgan san'atning bu turi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Xalq folklor musiqasining asosiy xususiyatlari haqida aytadigan bo'lsak, folklor musiqasini xalq yaratgan va xalq tomonidan ijro etilgan. Ahamiyatlisi, folklor musiqasining ijrosida va ijodida muayyan janrlar tarkibiga asoslangan erkinlik xususiyatlari mavjud bo'ladi. Musiqiy namunalarining shakl jihatidan soddaligi, barmoq vazniga xos she'riy matnlarga asoslanishi va unchalik katta bo'limgan diapazon doirasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Shu o'rinda, to'y marosimlarda kuylanadigan yor-yor, o'lan, kelin salom qo'shiqlari umrboqiy mazmunga ega ekanligini ham alohida qayd etish lozim. Ular davrlar osha tillardan-tillarga ko'chib, kuylanmoqda. Ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy urf-odat, an'analarimiz o'zida mujassamlashtirgan musiqa folklori namunalarining go'zal va betakror jarangi, go'zal musiqa va kuy uyg'unligidagi ajib ohanglari xalqimizning tilida mudom yangrab keladi. Bir necha asrlardan buyon yashab kelayotgan bu san'at turi azaliy va abadiy qadriyatlarimizning sarchashmasi sifatida millatimizning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi.

Qolaversa, xalq raqs san'ati ham ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Chunki qo'shiq va kuy ijrosi raqs san'ati bilan yanada ko'rksamlik kasb etadi. Ularning mazmuni tomoshabinga harakatlar hamda obrazlar orqali yetkaziladi. Xalqimizning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topgan va rivojlangan. Ularda xalqning qadimiyligi urf-odatlari, turli marosimlari, zamon hamda muhit ta'siri o'z izini qoldirgan. O'zbek raqs san'atining sayqallanishida xalq raqslarining ahamiyati nihoyatda yuqori ekanligini ham aytish joizdir.

Keng ko'lamda tashkil etilayotgan umumxalq bayramlarida, xalq ijodi festivallari davomida maydon raqslari, folklor raqslar, bolalar raqslari janrlari vujudga kelgan. Maromiga yetkazib

ijro etilgan raqs tomoshabinni zeriktirmaydi, estetik didini oshiradi, zavq beradi. Folklor-ethnografik ansambllar dasturidagi raqlarda urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarimiz aks ettiriladi. Jumladan, o'zbek ayollarining mehnat jarayonlarii, ularning xursandchiligi tasvirlanadi. Shuningdek, mazkur raqlar falsafiy-tarbiyaviy ma'noga ham ega bo'lib, insonning yomonlikdan yaxshilikka, yovuzlikdan ezgulikka intilishi aks ettiradi.

Qayd etish joizki, o'zbek xalq musiqasi, ashula va raqlari millatning ma'naviy-musiqiy boyligi hisoblanishi bilan birga uning mazmunida milliy urf-odat va an'analar, milliy mentalitet o'z ifodasini topgan. Ular o'zining o'ynoqligi va jo'shqinligiga ko'ra o'quvchilarni estetik tarbiyalashda muhim didaktik vosita sanaladi. Estetik tarbiya aql bilan hissiyotni uyg'unlashtirishdan iborat bo'ladi. Estetika shaxs estetik ongi, munosabatlari, estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat bo'lgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Bu jarayon san'at asarlaridan ma'naviy zavq olish, go'zallikka intilish kabi xislatlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Estetik ta'lim-tarbiya tufayli yoshlarda kuchli hissiy mushohada, mustaqil tafakkur yuritish qobiliyati, mantiqiy fikrlash xususiyatlari tarkib topadi. Estetik ta'lim-tarbiya berishda ma'naviy merosimizning tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy folklor yetakchi o'rinni egallaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek xalq musiqasi har bir shaxsning ma'naviy kamolotini shakllantirishda, intellektual salohiyatini rivojlantirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni tarannum etadi. O'zbek musiqa folklori mazmunida ezgulik g'oyalariga hurmat-ehtirom, sog'lom turmush tarzi, mehr-oqibat tuyg'ulari, tariximiz, madaniyatimizning chuqur ildizlari kuchli oriyat, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlarning ma'no-mohiyati ifodalangan. Xalq qalbiga yaqin bo'lgan oddiy va sodda folklor raqlarining ijrosi natijasida milliy qadriyatlarimiz, go'zal va nafis san'atimizning qirralari, urf-odatlarimiz, an'ana va marosimlarimiz haqida yanada to'liq ma'lumotlardan voqif bo'lamicha.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yoshlar uchun tanlanadigan asarlar repertuarlarida ularning yoshi hamda idrok etish qobiliyatlariga, qiziqishlari bilim va ko'nikmalari darajasiga mos keladigan o'tmish hamda hozirgi zamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining shakl va mazmuni bilan go'zal, hayotbaxsh, nafis, xushohang asarlar bo'lishi lozim. Agar folklor ethnografik ansambllarida ijodiy va tarbiya sohalar uzviy bog'liq holda olib borilsa, nafaqat tomoshabinning xalq san'atiga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi, balki barkamol avlodni voyaga yetkazishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Folklor-ethnografik ansambllari vakillarining raqlari orqali nafosatga yetaklovchi estetik didni shakllantirilishiga, ma'naviyatni rivojlantirishga erishiladi.

References:

1. Madatovna, K. M. (2022, December). TEACHING LISTENING IN ENGLISH LESSONS IN HIGHER EDUCATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 53-57).
2. Madatovna, K. M. (2022). APPROACHES AND METHODS OF TEACHING ENGLISH: ORAL APPROACH, SITUATIONAL LANGUAGE TEACHING AND AUDIO-SPEECH METHOD. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 91-94.
3. Madatovna, K. M. (2022). English phraseology and its features. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.

4. Madatovna, H. M. (2021). Features of teaching a foreign language to children of primary preschool age. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(11), 29-37.
5. Хотамова, М. М. (2021, November). Важность Фонетики И Фонологии В Обучении Произношению На Уроках Английского Языка. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 114-119).
6. Юсупходжаева, С. Т. (2020). Психоэмоциональнке расстройства при ревматоидном артиrite и методы их психокоррекции. *Журн. Неврология*, (3).
7. Юсупходжаева, С. Т. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ И МЕТОДЫ ИХ ПСИХОКОРРЕКЦИИ. In *Global Science and Innovations 2020* (pp. 170-174).
8. Kadirovna, A. D., & Mahmudovna, A. D. (2022). CULTURE OF SPEECH OF THE TEACHER WHEN LEARNING RUSSIAN. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 891-894.
9. Адилова, Д., & Раджапова, Н. (2021). Развитие многоязычия в Узбекистане, выбор второго иностранного языка. *Общество и инновации*, 2(5/S), 100-103.
10. Shadmanova, N. I., & Adilova, D. K. (2020). SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVILIZATION. *Theoretical & Applied Science*, (4), 168-171.